

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 4 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 7, НОМЕР 4

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 7, ISSUE 4



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

№4 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2024-4>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабирова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллоевич
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариева Аълохон Нуриддиновна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухрагон Пиржановна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Sabirova Umida OLIY TA'LIM SIFATINI MONITORING QILISH MODELI.....	5
2. Fayzieva Farogat MA'LUMOTLAR TO'PLASH JARAYONI SOTSIOLOGIK TADQIQOTLARNING SAMARADORLIK KO'RSATKICHI SIFATIDA.....	13
3. Mardiyeva Malika XX-XXI- ASRLARDA ISLOM MADANIYATIDAGI GENDER MUNOSABATLARI.....	23
4. Махмудова Малика ОПТИМИЗАЦИЯ МЕХАНИЗМОВ СОЦИАЛЬНОЙ ПОДДЕРЖКИ ДЛЯ ПРЕДОТВРАЩЕНИЯ ДОМАШНЕГО НАСИЛИЯ В ОТНОШЕНИИ ЖЕНЩИН В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	30
5. Tagaymutatova Gulchehra RAQAMLI TEXNOLOGIYANING INNOVATSION OLIY TA'LIM TIZIMIDAGI O'RNI.....	38
6. Shukurova Sevara OIV EPIDEMIYASI BILAN KURASHDA KOMPLEKS YONDASHUV TIZIMI.....	44
7. Razzakova Nargis JAMIYATNI MODERNIZATSIYALASH JARAYONIDA OILAVIY MUNOSABATLARNING O'ZGARISH DINAMIKASI.....	51
8. Samadov Shohzod JAMIYATDA IJTIMOIIY TRANSFORMATSIYALASHUV RIVOJIDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING AHAMIYATI (sotsiologik yondashuv).....	59
9. Kadirov Mirsulton IJTIMOIIY-MADANIY SOHADAGI MUAMMOLARNI HAL QILISHDA DAVLAT HOKIMIYATI VA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI O'RTASIDAGI O'ZARO HAMKORLIK MEKANIZMLARI.....	66
10. Kasimov Abdumavlon MAHALLIY BUDJET IJROSI USTIDAN DEPUTALIK NAZORATINI AMALGA OSHIRISHNING IJTIMOIIY-SIYOSIY OMILLARI.....	80
11. Usmonova Rohila AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHNING ILG'OR XORIJIY TAJRIBASI.....	87
12. Samadov Shohzod YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOIIY TRANSFORMATSIYALASHUV TENDENSIYALARI (Fuqarolik jamiyati institutlari misolida).....	95

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Sabirova Umida,
O‘zbekiston Milliy universiteti
sotsiologiya kafedrasida dotsenti,
sots.f.d. (DSc)
e-mail: umida-sabirova@yandex.ru

OLIV TA'LIM SIFATINI MONITORING QILISH MODELI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.14187480>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada monitoring jarayonining mohiyati va mazmuni, strukturasi va funksiyalari, turli tizim va shakllari, oliy ta'limni rivojlantirishdagi ahamiyati tadqiq etilgan. Mazkur tushunchaga turli mutaxassislar tomonidan berilgan ta'rif va tavsiflar qiyosiy tahlil qilingan, hozirgi davrning eng so'nggi talab va ehtiyojlariga javob beradigan definitsiya va xarakteristikalar ishlab chiqilgan. Sotsiologik monitoring tizimining nazariy va metodologik masalalari, jadal rivojlanayotgan oliy ta'lim sifatini monitoring qilishning innovatsion usul va yo'llari ilmiy asoslangan. Oliy ta'lim sifatini monitoring qilish modelini optimal tarzda amalga oshirish uchun bajariladigan ishlar tartibi, algoritmlar va ilmiy-uslubiy ta'minot majmuasi sifatida uni amalga oshirish metodikasi muallif tomondan ishlab chiqilgan va taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, model, sotsiologik monitoring, metodika, innovatsiya, analitik baholash, abstraksiya, prognoz

Сабилова Умида,
Национальный университет Узбекистана,
доцент кафедры социологии,
д.соц.н. (DSc),
e-mail: umida-sabirova@yandex.ru

МОДЕЛЬ МОНИТОРИНГА КАЧЕСТВА ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются сущность и содержание процесса мониторинга, его структура и функции, различные системы и формы, а также его значение в развитии высшего образования. Проведен сравнительный анализ определений и описаний, данных этому понятию различными специалистами, а также разработаны определения и характеристики, отвечающие новейшим требованиям и потребностям современности. Научно обоснованы теоретико-методологические вопросы системы социологического мониторинга, инновационные методы и способы мониторинга качества стремительно развивающегося высшего образования. Автором разработаны и представлены порядок работы, алгоритмы и методика ее реализации как комплекс научно-методического обеспечения оптимальной

реализации модели мониторинга качества высшего образования.

Ключевые слова: высшее образование, модель, социологический мониторинг, методология, инновация, аналитическая оценка, абстракция, прогноз.

Sabirova Umida,
National University of Uzbekistan
(DSc), Associate Professor of the Department of Sociology
e-mail: umida-sabirova@yandex.ru

MODEL FOR MONITORING THE QUALITY OF HIGHER EDUCATION

ABSTRACT

This article discusses the essence and content of the monitoring process, its structure and functions, various systems and forms, as well as its significance in the development of higher education. A comparative analysis of the definitions and descriptions given to this concept by various specialists was carried out, and definitions and characteristics were developed that meet the latest requirements and needs of our time. Theoretical and methodological issues of the sociological monitoring system, innovative methods and methods for monitoring the quality of rapidly developing higher education are scientifically substantiated. The author has developed and presented the work procedure, algorithms and methods of its implementation as a complex of scientific and methodological support for the optimal implementation of the model for monitoring the quality of higher education.

Key words: higher education, model, sociological monitoring, methodology, innovation, analytical assessment, abstraction, forecast.

KIRISH

Bugungi kunda dunyoda ta'lim sifatini baholash va istiqbolini belgilash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda va shu maqsadga xizmat qiladigan barcha usul va vositalardan, birinchi navbatda, sotsiologik monitoringdan keng foydalanilmoqda. Ta'lim sotsiologiyasining tarkibiy qismi bo'lgan ta'lim sifati monitoringi so'nggi o'n yilliklar mobaynida muayyan darajada rivojlandi, sezilarli yutuqlarga erishildi. Ko'plab mutaxassislar oliy ta'lim sifatining yaxlit modelini yaratish, ta'lim sifatini baholashning yangi texnologiyalarini ishlab chiqish zarurligi xususida fikr yuritmoqdalar.

Mamlakatimizda ta'lim tizimini, xususan, oliy ta'limni tubdan isloh qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Hozirda mamlakatimizda 213 ta oliygohda 1300 ming nafardan ziyod talaba tahsil olib, bu ko'rsatkich orqali yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi 2022-yilgi 38 % dan 42 % ga oshdi. 2023-yilda 7 ta yangi oliy ta'lim muassasasi faoliyati yo'lga qo'yilib, ularning soni jami 213 taga yetdi. Shundan 116 tasi davlat, 67 tasi nodavlat, 30 tasi esa xorijiy oliy ta'lim muassasalaridir [1]. Mana shu miqdor o'zgarishlari sifat o'zgarishiga olib kelishi uchun oliy ta'lim tizimini baholab borish, monitoring qilishning tamomila yangi va benuqson mexanizmi joriy etilishi zarur hisoblanib, undan samarali texnologiya sifatida foydalanish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

METODOLOGIYA

Sotsiologik monitoring tizimining nazariy va metodologik masalalari, jadal rivojlanayotgan oliy ta'lim sifatini monitoring qilishning innovatsion usul va yo'llari, oliy ta'lim tizimini takomillashtirish, muammolarni ilm-fan va ijtimoiy tizimlarning uzviy aloqadorligi orqali bartaraf etish xususida tadqiqotlar olib borilmoqda.

Xorijiy klassik olimlardan E.Dyurkgeym, G.Spenser, T.Parsons, P.Sorokin, M.Veber, P.Burde, E.Gusserl, A.Shyus, M.Sheler va R.Merton, P.Berger va T.Lukmanlarning tadqiqotlarida fenomenologiya nuqtayi nazaridan ta'lim tizimlarini tahlil qilish, tizimli funksionalizm [2], ijtimoiy haqiqatni bilim sotsiologiyasi asosida qurishning zamonaviy nazariyasi va metodikasi [3], mavjud ijtimoiy institutlarning, butun jamiyatning barqarorligi va dinamikasi barcha ijtimoiy jarayonlarni

inson omilini takomillashtirish sari yo‘naltirishga undaydi, uni permanent boshqarishga majbur qiladi, degan g‘oyaga asoslangan.


ASOSIY QISM

“Monitoring” atamasi xalqaro hujjatlarda rasman ishlatila boshlaganiga 53 yil to‘ldi [4]. Muayyan o‘zgarishlarni kuzatib borish mexanizmi sifatida monitoring har qanday jabhada amalga oshiriladi, biroq sohalar monitoringi o‘z mazmuni, tashkil etilishi, amalga oshirilishi va olingan ma’lumotlarni amalda qo‘llashi bilan bir-biridan farq qiladi.

Sotsiologik monitoring jamiyatda yuz berayotgan o‘zgarishlarni kuzatib borish, ommaning fikrini o‘rganish va tahlil qilishdir. Bunda ijtimoiy muhit holatini aks ettiruvchi muayyan ko‘rsatkichlar haqida ma’lumot to‘planadi va natijalar dinamikasi standart ko‘rsatkichlar bilan taqqoslanadi hamda tahlil qilinadi. Demak, monitoring o‘tkazish sotsiologiyada axborot va analitik-baholash funksiyalarini bajaradi.

Ta’lim monitoringi deganda, biz yig‘ilgan ma’lumotni va ta’lim prognozini tahlil qilish asosida boshqaruv qarorlarini o‘z vaqtida qabul qilish maqsadida ta’lim tizimi alohida elementlarining ishlashi va rivojlanishini doimiy, maqsadga yo‘naltirilgan tarzda kuzatib borishni nazarda tutamiz.

Ta’lim sifati – bu monitoring obyektidir. Subyektlar obyektini o‘rganadi va obyekt, o‘z navbatida, subyektlar uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar manbai vazifasini bajaradi. Monitoring subyektlari obyektga qarab o‘rganish maqsadini belgilaydilar. Ushbu uch turdagi aloqalar zanjiri (subyektlar – obyekt, subyektlar – maqsad, subyekt – subyekt) tizimni tashkil qiladi va ular monitoring tizimining yaxlitligini, amalga oshirilish tartibotini (protsedura) ta’minlaydi va yangilangan ta’lim muhitini yuzaga keltiradi (1-chizmaga qarang).



1-chizma. Ta’lim sifati monitoring tizimi.

Oliy ta’lim sifati sotsiologik monitoring qilish tizimini yaratishda modellar majmui va modellashtirish jarayoni sifatida o‘rganish asosiy empirik manba bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqotchilar

modellashtirish usuli orqali bir qator ta'lim jarayoni vaziyatlarini shakllantirish, ularning tuzilishi, mohiyati va mazmuniga aniqlik kiritish uchun foydalanishadi. Buning uchun modellashtirish usuli yordamida o'rganiladigan vaziyatlarni tahlil qilish talab etiladi.

Modellashtirish model, zamonaviy bilim va amaliyot darajasi yetarli bo'lmaganligi sababli uni to'g'ridan-to'g'ri o'rganish imkoni bo'lmaganda, obyekt nazariyasini ishlab chiqish asosida yaratiladi. Tadqiqotchini bevosita qiziqtiradigan obyekt to'g'risidagi ma'lumotlar boshqa obyektни o'rganish orqali olinadi. Bunda ikkala obyektning sifat va miqdoriy ko'rsatkichlarini aniqlaydigan xususiyatlar birinchi obyektning umumiy sifatlari bilan birlashtiriladi. Shu boisdan ham, model deganda, "tadqiqot obyektini aks ettirish yoki ko'paytirish orqali uning o'rnini bosishi mumkin bo'lgan aqliy tasavvur qilingan yoki moddiy jihatdan amalga oshirilgan tizim tushuniladi" [5]. Har qanday ilmiy tadqiqot usuli mohiyatan ham nazariy (turli xil belgilar, mavhum modellar yordamida) ham eksperimental (fanga oid modellar yordamida) modellashtirish g'oyasiga asoslanadi. Jahon adabiyotida "model" tushunchasiga nisbatan bir nechta ilmiy yondashuvlar mavjud [6].

Sotsiologik tadqiqotlarda katta ahamiyatga ega bo'lgan modellashtirish usulining xususiyatlaridan biri bu uning ko'p qirrali ekanligidir. Shu jihatdan, sotsiologiyada modellashtirish – bu ijtimoiy hodisa va jarayonlarni ularning modellari bo'yicha o'rganish usuli, ya'ni ijtimoiy obyektlarni bilvosita o'rganish, bu jarayonda ular kognitiv jarayonda asl o'rnini bosuvchi yordamchi tizimda (modelda) takrorlanadi hamda tadqiqot mavzusi haqida yangi bilimlarni olishga imkon beradi [7]. Ko'plab mualliflar modellashtirishni bilish nazariyasining asosiy metodlaridan biri, deb hisoblashadi [8].

Modellashtirish usulining empirik va nazariy tadqiqotlarga tatbiq etilishi uning tadqiqotchi uchun ahamiyatli bo'lgan yana bir jihatini ko'rsatadi. Bundan tashqari, nazariy tadqiqotda modellashtirish ijtimoiy boshqaruvda muhim ahamiyatga ega bo'lgan prognoz qilish funksiyasini ham bajaradi. Bir qator tadqiqotlarda modellashtirish muayyan hodisalar, jarayonlar yoki obyektlar tizimini ularning modellarini yaratish orqali va o'rganish usuli sifatida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, xususiyatlarni aniqlash va yangi yaratilgan obyektlarni ishlab chiqish usullarini takomillashtirish uchun modellardan foydalaniladi.

Modellashtirish ilmiy izlanishlarning abstrakt va mantiqiy protseduralariga asoslanadi. Abstraksiya - bu modelni yaratish jarayonida eng muhim aqliy operatsiyalardan biri hisoblanadi. Abstraksiyaning mohiyati shundaki, tadqiqotchi cheksiz xususiyatlar to'plamini emas, balki ahamiyati kam bo'lgan bir qisminigina ko'rib chiqadi. Tekshirilayotgan xususiyatlar va munosabatlar sohasining cheklanishi o'rganilayotgan obyektlarning o'ziga xos xususiyatlari va o'rganish maqsadlariga bog'liq bo'ladi.

Modellarning shaklan va mazmuniy ko'rinishi masalasi modellashtirish nazariyasida munozarali masalalardan biridir. Sotsiologik izlanishlar shuni ko'rsatadiki, adabiyotlarda ushbu xususiyatning har bir modelga xos emasligi ta'kidlanadi. Biz modellarning mezon funksiyasini sotsiologik tadqiqotlar uchun kam ahamiyatli, deb hisoblaymiz. Oliy ta'lim sifatini sotsiologik monitoring qilish modeli oliy ta'lim sifatini oshirish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish imkonini beradigan oliy ta'lim sifatini monitoring qilish jarayonining maqsadi, amalga oshirish tamoyillari, vazifalari, shartlari va mazmunini belgilaydigan va oshkor etadigan bir qator tarkibiy qismlarni o'z ichiga olgan axborot tizimi sifatida taqdim etiladi (2-chizmaga qarang).

Oliy ta'lim sifatini monitoring qilish modelini optimal tarzda amalga oshirish uchun bajariladigan ishlar tartibi, algoritmlar va ilmiy-uslubiy ta'minot majmuasi sifatida uni amalga oshirish metodikasi ishlab chiqildi (1-jadval).

Metodika oliy ta'lim sifati monitoringining ta'kidlangan tarkibiy qismlari – tadqiqot, baholash, prognozlashtirishga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, har bir komponentni amalga oshirish maqsadlari, tartiblari va ularni amalga oshirish natijalarini o'z ichiga oladi.


Murakkab tizimning har bir mezonini sifat va miqdoriy ko'rsatkichlar majmui bilan tuziladi.

Oliy ta'lim sifatini monitoring qilish metodikasi

Monitoring komponentlari	Maqsad	Bajariladigan ishlar tartibi	Natija
Tadqiqot	Obyektlar haqida har tomonlama, yetarli, ishonchli aniq ma'lumotlarni yig'ish, to'plash va saqlash	<ol style="list-style-type: none"> 1.Tadqiqotning asoslari va parametrlarini aniqlash. 2.Tadqiqot obyektlarini aniqlash. 3.Obyekt haqida ma'lumot to'plash 4.Parametrlarga muvofiq obyekt haqida ma'lumotlarni tasniflash. 5.Ma'lumotlar bazalarini yaratish. 6.Ma'lumotlar bazalarida axborotni vaqt xronologiyasiga muvofiq taqsimlash va saqlash. 	Monitoring obyektlari bo'yicha haqiqiy ma'lumotlar
Baholash	Haqiqiy ma'lumotlar asosida monitoring obyektlarining holati to'g'risida tanqidiy fikrni shakllantirish	<ol style="list-style-type: none"> 1.Baholash mezonlari va ko'rsatkichlarini tanlash. 2.Obyektning haqiqiy holatini modellashtirish. 3.Obyektning real va me'yoriy modelini solishtirish va taqqoslash. 4. Obyektning holati haqida tanqidiy fikrni shakllantirish. 	Monitoring obyektlarining holati, rivojlanish dinamikasi, ularning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar haqida xulosa.
Prognozlash	Monitoring obyektlarini rivojlantirish dasturini ishlab chiqish	<ol style="list-style-type: none"> 1.Obyektning rivojlantirishning istiqbolli modelini yaratish. 2. Obyektning haqiqiy va istiqbolli modelini solishtirish va taqqoslash. 3.Obyektning rivojlantirish yo'llarini aniqlash. 4.Obyektning optimal rivojlantirishning sharoitlari va maqbul yo'llarini aniqlash. 5. Monitoring obyektlarini optimal rivojlantirish dasturini ishlab chiqish. 6.Tuzatish choralari dasturini ishlab chiqish 	Monitoring obyektlarini rivojlantirish dasturi

Modellashtirishni yetakchi tadqiqot usuli sifatida tanlash, birinchi navbatda, oliy ta'lim sifatini sotsiologik monitoring qilish jarayoniga tizimli yondashish strategiyasini aniqlash nuqtayi

nazaridan muhimdir. Tizimli yondashuv protseduralarini qo‘llash tushuntirish funksiyasiga ega bo‘lgan o‘rganilayotgan obyektning tizimli ko‘rinishini yaratishga imkon beradi.



2-chizma. Oliy ta'lim sifatini monitoring qilish modeli

Sotsiologik monitoring o‘quv jarayonidagi tizimni shakllantiruvchi omil sifatida oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonining yangi sharoitlarini, ta’limning murakkab ko‘pkomponentli tizim sifatida rivojlanishini aks ettiradi. Bu holatda, modellash o‘zgarayotgan faoliyat sifatida paydo bo‘ladi. Borliqni o‘zgartirishning bu usuli, ayniqsa, mavjud qonunlar va nazariyalar yordamida tasvirlab bo‘lmaydigan murakkab tizimlarni ko‘rib chiqishda juda muhimdir [9].

Ijtimoiy jarayonlarni modellashtirish usullarini ishlab chiqishning dolzarbligi V.G.Afanasyev [10] tomonidan o'rganilgan bo'lib, uning fikricha, bu jarayonlarni qonunlar yordamida izohlash oson emas, ularni tushunishning eng samarali usuli – bu ularning modellarini yaratish va o'rganishdir. Bunday tizimlar, shuningdek, rivojlanayotgan ko'plab omillar ta'sirida bo'lgan oliy ta'limning asosi sifatida monitoringni o'z ichiga oladi. Shu sababli, ushbu tadqiqotda ta'limni monitoring qilishni modellashtirish oliy ta'limni rivojlantirishning hozirgi sharoitida uning yangi xususiyatlarini ishlab chiqishning yetakchi usuli hisoblanadi.

Ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lgan monitoringda va umuman o'quv jarayonida ham sezilarli darajada tarqoqlik hamda tashkiliy ishlarning yaxshi emasligi kabi salbiy jihatlar mavjud bo'lib, bu turli xususiyatga ega bo'lgan omillar harakatini qat'iy farqlashda to'sqinlik qiladi.

Ba'zi tadqiqotchilar kasbiy ta'limga asosli ravishda alohida yondashadilar: “bunday tizimlarni o'rganayotganda, tajriba natijasida olingan ma'lumotlarning mos kelishi modelning yetarli darajada samarali ekanligini tasdiqlamaydi, chunki har doim ijobiy tajribaviy natijalar beradigan boshqa modellarni qo'llash mumkin [11]. Bunday tushuncha O'zbekistonda oliy ta'lim tizimida sotsiologik intizomni tashkil etish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar doirasida qo'llanilgan [12].

Tanlangan modelni maqbul, deb topishga tegishli faoliyat sohasidagi uzoq muddatli amaliyot yordam beradi. Shuning uchun, ushbu tadqiqotda tanlangan monitoring modelining eng muhim mezonlari sifatida uning davlat darajasida va hokimiyat subyektlari darajasida oliy ta'limni isloh qilish talablariga muvofiqligi inobatga olindi. Shuningdek, uni yaratishda umumiy ilmiy modellashtirish nazariyasining talablariga amal qilindi.

Modellashtirish tadqiqot usuli sifatida keng – umumiy kognitiv ma'noda ham, tor – maxsus ma'noda ham qo'llanilishi mumkin. Modellashtirish keng ma'noda bilish jarayonining universal jihatini ifodalaydi. Obyekt mohiyatini o'zlashtirishni abstraksiyalash uni modellashtirishga yo'l ochadi. Shu ma'noda modellashtirish mavjud barcha bilimlarning umumiy tizim yasovchi elementlarini qamrab oladi, lekin uning juz'iy jihatlarini mufassal e'tiborga olmaydi [13].

Tadqiqotda modellashtirish tor ma'noda bilishning o'ziga xos usuli sifatida ishlatiladi, bunda bitta tizim boshqa tizimda qayta ishlanadi. Aynan shu ma'noda sotsiologik monitoring jarayonlarini rivojlantirish o'quv jarayonining asosini tashkil etadi, ammo bu o'ziga xos murakkablikka ham ega.

Ushbu tadqiqotda ta'lim sifatini monitoring qilishni modellashtirish usullarini ishlab chiqishda biz yuqorida muhokama qilingan modellashtirishning umumiy ilmiy nazariyasi qoidalariga asoslandik. Ushbu nazariyaga ko'ra, bilish jarayonida modellashtirishning o'rni quyidagicha taqdim etiladi: hodisani o'rganish va faktlarni to'plash – modelni yaratish va o'rganish – uning natijalaridan amalda foydalanish.

XULOSA

Modellashtirishni sotsiologik tadqiqotlar usuli sifatida qo'llash oliy ta'lim sifatini monitoring qilish modelini yaratishda muhim o'rin tutadi. Ushbu tadqiqot uchun modellashtirish usulini tanlashda quyidagi shartlar mavjud bo'ladi:

- tadqiqot jarayonida mavhum mantiqiy protseduralarga tayanish;
- prognoz qiluvchi funktsiya;
- tadqiqot predmeti nazariyasini shakllantirish imkoniyati;
- nazariy va tajriba tadqiqotlarda ham foydalanish imkoniyati;
- universallik (tadqiqotning ko'plab bosqichlarida qo'llash mumkin).

Bizning fikrimizcha, modellashtirish asosidagi umumiy ilmiy-nazariy tamoyillar uning maqsadga muvofiqligi to'g'risidagi qoidalarni, model va obyektning o'xshashligini, modelning tizimli ekanligini, modellashtirishdagi obyektiv va subyektiv yaxlitlikni, modellashtirishning taqdimoti va shakllantiruvchi funksiyalari va boshqalarni o'z ichiga olishi kerak.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. <https://aniq.uz/uz/statistika/dunyo> (20.02.2024)
2. Гуссерль Э. Кризис европейских наук и трансцендентальная феноменология. Введение в феноменологическую философию. – СПб.: Владимир Даль, 2004; Щюц А.

Формирование понятия и теории в общественных науках. В кн.: Американская социологическая мысль. – М.: МГУ, 1994; Шелер М. Формы знания и образование/ Шелер М. Философское мировоззрение / Шелер М. Избранные произведения. – М.: Гнозис, 1994; Merton R.K. The Institutional Imperatives of Science // Sociology of Science / ed. B.Barnes. – L.: Penguin Books, 1972.

3. Бергер П., Лукман Т. Социальное конструирование реальности. Трактат по социологии знания. – М., 1995.

4. Ushbu atama ilk bora YUNESKOning “Atrof-muhit muammolari ilmiy qo‘mitasi”ning maxsus tavsiyalarida 1971-yil qo‘llanilgan, so‘ng 1972-yili ekologik monitoring bo‘yicha Stokholmda chaqirilgan konferensiyada rasman muomalaga kiritilgan.

5. Штофф В.А. Моделирование и познание / Под ред.В.А.Штофф. – Минск: Наука и техника, 1974 – 211с.

6. Афанасьев В.Г. Моделирование как метод исследования социальных систем // Системные исследования. Методологические проблемы // Ежегодник, 1982. – М.: Наука, 1982.– С. 21.

7. Социальная энциклопедия. – М., 2000. – С. 78.

8. Афанасьев В.Г. Моделирование как метод исследования социальных систем // Системные исследования. Методологические проблемы // Ежегодник, 1982. – М.: Наука, 1982. – С. 21.

9. Попов А.М., Сотников В.Н. Экономико-математические методы и модели: учебник – 3-е изд., испр. и доп. – М.,: Юрайт, 2019.

10. Человек: общество, управление, информация: Опыт системного подхода. URSS,2013. – 208 с.ISBN 978-5-397-03824-9.

11. Фомин Г.П. Экономико-математические методы и модели в коммерческой деятельности: учебник для бакалавров / Г.П.Фомин. – 4-е изд., перераб. и доп. – М.: Издательство Юрайт, 2019. – 462 с.

12. Сеитов А.П., Собирова У.Ф. Модель развития социологии в системе высшего образования в Узбекистане / Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари. – Ташкент, 2019. – №4 (88). С. 17-24.

13. Алпатов Ю.Н. Моделирование процессов и систем управления: учебное пособие/Ю.Н.Алпатов. – Санкт-Петербург: Лань, 2018. – 140 с.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 4 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
ТОМ 7, НОМЕР 4

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
VOLUME 7, ISSUE 4

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000